MULTIMODAL BIRLIK TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Choriyeva Charos Salomovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: choriyevacharos94@gmail.com

Annotatsiya: Multimodallik tushunchasi tilshunoslik, ta'lim, san'at va kommunikatsiya kabi sohalarda faol qo'llaniladi. Bugungi davr tilshunoslik ilmida tinglovchilarga xabarlarni samaraliroq yetkazish va boyroq tajriba taqdim etish maqsadida bir nechta usullardan (ya'ni, vizual, eshitish, matnli va boshqalar) birgalikda foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Mazkur jarayonda multimodal birliklarning muloqot yoki matn birligi sifatidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *multimodallik, vizual tilshunoslik, medialingvistika, ekstralingvistik, polimoda, polikod, lingvo-verbal.*

Аннотация: Концепция мультимодальности активно используется в таких областях, как лингвистика, образование, искусство и коммуникация. В современной лингвистике необходимость использования нескольких модальностей (например, визуальной, слуховой, текстовой и т. д.) для более эффективной передачи сообщений слушателям и обеспечения более богатого опыта становится требованием времени. В этом процессе роль мультимодальных единиц как коммуникационных или текстовых единиц имеет большое значение.

Ключевые слова: *мультимодальность, визуальная лингвистика, медиалингвистика, экстралингвистика, полимодальный, поликод, лингвовербальный.*

Abstract: The concept of multimodality is actively used in fields such as linguistics, education, art, and communication. In today's linguistics, the need to use multiple modalities (i.e., visual, auditory, textual, etc.) together to more effectively convey messages to listeners and provide a richer experience is becoming a requirement of the times. In this process, the role of multimodal units as communication or textual units is of great importance.

Keywords: *multimodality, visual linguistics, medialinguistics, extralinguistics, polymodal, polycode, lingvo-verbal.*

Bugungi zamonaviy tilshunoslik internet va axborot texnologiyalarining tobora keng tarqalishi, kommunikatsion vositalarning jadal rivojlanishi kabi omillar ta'sirida yangi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Hozirda tilshunoslikda "multimodallik" tushunchasi ko'plab olimlarning e'tibor markazida turibdi. Kommunikativ muloqot jarayonida juda ko'p ishlatilayotgan mazkur birliklar ishlatilish vaziyatiga muvofiq holda turlicha talqin qilinadi. R.Scollon multimodallik haqida to'xtalarkan, "Tildan har qanday foydalanish muqarrar ravishda multimodaldir"[1,386] deydi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, bugun tilshunoslikda matnning uchinchi aralash turi yuzaga keldi. "Zamonaviy fanda matnning uch turi haqida gapirish odatiy holdir: lingvistik (og'zaki), ekstralingvistik (og'zaki bo'lmagan) va aralash.[2,66] Aralash matnga nisbatan polimodal, polikod, kreolizatiya qilingan, lingvo-vizual, video-verbal kabi nomlar berilgan. Xorijiy tilshunoslikda esa G.

Kress, T. van Leeuwen, C. Jewitt, M. Bednarek, J.R. Martin, E. Ventola, E. Adami, F. Serafini, M. Walsh va boshqalarning tadqiqotlarida aralash matnga dominant atama sifatida "multimodal matn" terminini qo'llash g'oyasi ilgari suriladi.

Multimodallikka turli nazariy nuqtai nazardan yondashiladi. Shunday qilib, tilshunoslar multimodal yoki polikodli matnlarning kommunikativ xususiyatlari va tuzilishiga e'tibor qaratadilar, sotsiologlar multimodal diskursda aloqa oqimining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladilar va o'qituvchilar multimodal matnlarning o'rganish va o'qitish maqsadlarida o'qitish salohiyatini o'rganadilar.[3,156]

Multimodallik tushunchasi psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, neyrofizilogiya, transport, pedagogika kabi bir qator sohalarda mavjud va sohalardan kelib chiqqan holda turlicha ma'nolarni anglatadi. Biz ushbu birlikning aynan tilshunoslikdagi talqiniga batafsil to'xtalishdan oldin uning asl lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratdik. "Multimodal" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "ko'p modalli", "ko'p usulli" degan ma'nolarni anglatadi. O'TILda multi – [lot.multum – ancha, ko'p] baynalmilal o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, biror narsaning ko'pligini, ko'p qaytarilishini bildiradi deya ta'rif beriladi. Biroq aynan multimodal so'zining izohi mavjud emas. [6,636]

D.Xudoyberganovaning "Zamonaviy tilshunoslik terminlari izohli lug'ati"da aynan multimodal so'zini uchratmadik, biroq *mediadiskurs, medialingvistika, mediamuhit, mediamatn* kabi tushunchalarning izohi berilganiga guvoh bo'ldik.

Bugungi raqamli muloqot davrida multimodallik samarali muloqotga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Multimodal birliklar og'zaki ravishda fikrni to'liq yetkazish mumkin bo'lmagan holatlarda vizual tilshunoslik,

paralingvistika, medialingvistika kabi sohalarda alohida kontekst sifatida tadqiq etiladi. Ushbu mavzuda jahon tilshunosligida Syuzan B. Barnes, Jon A. Bateman, Devid Kristal, Norman Ferklou, Keri Jevitt, Gunter Kress, Teo van Leuven va Kay O'Xalloran, L. Makaruk [7,8,9,10,11]kabi bir qator olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

"Multimodal vositalar foydalanuvchilarning aloqa jarayonida vaqt va makon cheklovlarini yengib o'tish, tezkor fikr almashish va global auditoriyaga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular oddiy til birliklariga qaraganda kuchliroq "emotsional va assotsiativ" ma'noni yuklaydi".[4,147]

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlardan Facebook va Instagram tarmoqlari shaxsiy tajriba almashish, o'zini taqdim etish va ijtimoiy identifikatsiyani mustahkamlashda yetakchi platformalarga aylandi va ulardagi muloqot tabiatan multimodaldir. Chunki u ma'no yaratish uchun turli xil semiotik resurslarni - matn, tasvirlar, video, emojilar, xeshteglar, giflar, fon musiqasi, rang va maketni yaxlit tarzda birlashtiradi.[5,6]

Kommunikativ lingvistika nuqtai nazaridan, multimodallik - bu matnning tuzilishiga ham og'zaki, ham og'zaki bo'lmagan komponentlar kiradigan xususiyatdir. Bunday matn turli xil imo-ishora tizimlari va aloqa kanallari orqali uzatiladigan ma'lumotlarni, masalan, tovush, illyustratsiyalar, musiqa yoki imo-ishoralarni o'z ichiga oladi.[12,70]

Shunday qilib, multimodallikka e'tibor qaratilishi bilan dunyoni idrok etishning o'zi o'zgardi. Ilgari axborotning asosiy tashuvchisi sifatida dominant bo'lgan so'z endilikda tasvirlar, stiker, emoji singari multimodal birliklar bilan

almashtirilmoqda, bu esa vizual tafakkurning og'zakiga nisbatan ustuvorligida ham ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Scollon R. Multimodality and the language of politics Encyclopedia of language and linguistics, 2nd ed. / Eds. Yu. I. Alexandrov et al. Oxford: Elsevier, 2006. V. 9. P. 386–387.
2. Омельяненко В.А., Ремчукова Е.Н. Поликодовые тексты в аспекте теории мультимодальности // Коммуникативные исследования. 2018. № 3 (17). С. 66–78. DOI: 10.25513/2413-6182.2018.3.66-78.
3. Кац Н.Г., Рубцова А.В., Аитов В.Ф. Иноязычный мультимодальный текст как основа раз работки учебных материалов для цифровой образовательной среды вуза // Вестник Томского государственного университета. 2024. № 504. С. 156–163. doi: 10.17223/15617793/504/17
4. Tuxtaxodjayeva N. Cognitive-pragmatic mechanisms of multimodal resources in digital communication and their discursive characteristics// Oriental journal of philology. https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-06-22 146 Pages: 144-150
5. Abdug'aniyeva M. Multimodal communication in social media: a comparative analysis of english and uzbek Instagram/Facebook discourse // Mental enlightenment scientific – methodological jouurnal https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I8-01 Pages: 1-13
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж.II.Е–М/ Масъул муҳаррир А.Мадвалиев.– Т.: "Ўзбекистон нашриёти " давлат унитар корхонаси, 2020. – 672 б.

7. Jewitt C. The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. – London : Routledge, 2009;
8. Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. 1st ed. London : Routledge, 2009;
9. Leeuwen V. T. Multimodality // The Handbook of Discourse Analysis / edited by T. Deborah, H. E. Heidi, S. Deborah. 2015. Vol. 2.;
10. O'Halloran K. L. Multimodal Discourse Analysis. London & New York : Continuum, 2011;
11. L. Makaruk Types of Multimodal Syntactic Constructions in Modern English Mass Media Texts. Science and Education a New Dimension. Philology, VI(54), Issue: 183, 2018 Nov. www.seanewdim.com
12. Leeuwen T. van. Introducing Social Semiotics. L. : Routledge, 2005. 320 p. Омельяненко В.А., Ремчукова Е.Н. Поликодовые тексты в аспекте теории мультимодальности // Коммуникативные исследования. 2018. № 3 (17). С. 66–78. doi: 10.25513/2413-6182.2018.3.66-78